

**OILAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIIY-
MADANIY OMILLAR****Umarova Shohida Absalomovna****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi****Chirchiq, O'zbekiston****ORCID: 0009-0004-3214-2588****E-mail: umarovashohida018@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21449916>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy-madaniy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Urbanizatsiya, globallashuv, raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, migratsiya jarayonlari hamda ommaviy axborot vositalarining oila institutiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar va zamonaviy hayot tarzi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashning psixologik hamda pedagogik jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, transformatsiya, globallashuv, urbanizatsiya, migratsiya, madaniyat, ijtimoiy omillar, psixologik moslashuv, milliy qadriyatlar.

Kirish: Oila jamiyatning eng muhim va barqaror ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, shaxsning jismoniy, ma'naviy, axloqiy va psixologik kamolotida muhim o'rin tutadi. Insonning hayotga bo'lgan munosabati, qadriyatlari, xulq-atvori va ijtimoiy mas'uliyati, eng avvalo, oilada shakllanadi. Shu bois oilada yuz berayotgan o'zgarishlar nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, globallashuv jarayonlarining kuchayishi hamda axborot makonining kengayishi oilaning tuzilishi, funksiyalari va qadriyatlar tizimida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, XXI asrda raqamli texnologiyalar, urbanizatsiya, migratsiya, ommaviy madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi oilaviy munosabatlarning mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada an'anaviy oilaviy qadriyatlar zamonaviy hayot talablari bilan uyg'unlashib, yangi mazmun kasb etmoqda. Bu jarayon oilaviy qadriyatlarning butunlay yo'qolishini emas, balki ularning o'zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashishini anglatadi.

Mening fikricha, oilaviy qadriyatlar transformatsiyasini faqat salbiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Chunki har bir tarixiy davr oilaga yangi vazifalar va yangi talablarni yuklaydi. Muhimi, ushbu o'zgarishlar jarayonida milliy qadriyatlar, oilaviy birdamlik, o'zaro hurmat, mas'uliyat va farzand tarbiyasiga oid an'analar saqlanib qolishi hamda zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg'un rivojlanishidir. Aynan shunday muvozanat oilaning barqarorligi va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy qadriyatlar transformatsiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning oila institutiga ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qilish hamda mavjud muammolarning yechimlarini izlash bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada oilaviy qadriyatlarning o'zgarishiga sabab bo'layotgan asosiy ijtimoiy-madaniy omillar tahlil qilinib, ularning zamonaviy oila rivojiga ta'siri pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada ilmiy kuzatish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, sotsiologik va psixologik yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, oila sotsiologiyasi, ijtimoiy psixologiya hamda madaniyatshunoslik sohasidagi nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Asosiy qism: Zamonaviy taraqqiyot sharoitida globallashuv mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalaridagi o'zaro hamkorlik hamda integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan izohlanadi. Mazkur jarayon dunyoning turli hududlarida yashovchi insonlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oila ham ushbu o'zgarishlardan chetda qolmayapti. Bugungi kunda oilaviy munosabatlar, nikohga bo'lgan qarashlar, ota-onalik mas'uliyati va farzand tarbiyasi masalalarida yangi yondashuvlar shakllanmoqda.

Globallashuvning oilaviy qadriyatlarga ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat, gender tengligini ta'minlash, oilada o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillarini rivojlantirish, farzand tarbiyasida zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanish kabi ijobiy tendensiyalar keng tarqalmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ilmiy bilimlarning ommalashuvi ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga, bolalarning huquqlarini himoya qilishga hamda oiladagi sog'lom psixologik muhitni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan globallashuv oilaning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Biroq mazkur jarayonning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Xususan, individualizmning kuchayishi, iste'molchilik madaniyatining ommalashuvi, moddiy manfaatlarning ma'naviy qadriyatlardan ustun qo'yilishi hamda ommaviy madaniyatning keng tarqalishi oilaviy birdamlik va o'zaro mas'uliyat tuyg'usining zaiflashishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim hollarda shaxsiy manfaatlarning ustuvorligi oila a'zolari o'rtasidagi muloqotning kamayishiga, avlodlar o'rtasidagi qadriyatlar tafovutining ortishiga va oilaviy nizolarning ko'payishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanilishi real oilaviy muloqotning qisqarishiga hamda emotsional yaqinlikning susayishiga ta'sir etayotgan omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlarning nikoh va oilaga bo'lgan munosabati ham avvalgi avlodlardan ma'lum darajada farq qilmoqda. Yoshlar, avvalo, ta'lim olish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish, iqtisodiy mustaqillikka erishish va shaxsiy rivojlanishni ustuvor maqsad sifatida belgilamoqda. Natijada nikoh qurish yoshi nisbatan kechikmoqda, oilalarda farzandlar soni kamaymoqda hamda oilaning iqtisodiy va tarbiyaviy funksiyalarida yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Bunday o'zgarishlar bir tomondan oilalarning moddiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan demografik jarayonlar, avlodlar davomiyligi va milliy oilaviy qadriyatlarning uzviyligini saqlash masalalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Urbanizatsiya zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim ijtimoiy jarayonlaridan biri bo'lib, u aholining qishloq hududlaridan shaharlarga ko'chishi, shahar turmush tarzining keng tarqalishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon oilaning tarkibi, vazifalari va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, avvallari keng tarqalgan ko'p avlodli oilalar o'rnini ota-ona va farzandlardan iborat kichik oilalar egallab bormoqda. Bunday holat oilaning mustaqilligini oshirayotgan bo'lsa-da, avlodlar o'rtasidagi kundalik muloqot va o'zaro ma'naviy qo'llab-quvvatlashning kamayishiga ham sabab bo'lmoqda. Shaharlarda yashash xarajatlarining ortishi, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi, ish bilan bandlik darajasining yuqoriligi hamda hayot

sur'atining tezlashishi natijasida oila a'zolarining birgalikda vaqt o'tkazish imkoniyatlari cheklanmoqda. Natijada oilada emotsional yaqinlikni saqlash, farzandlar tarbiyasiga yetarlicha e'tibor qaratish, milliy urf-odat va oilaviy an'analarni muntazam davom ettirish ayrim hollarda murakkablashmoqda. Ayniqsa, ota-onalarning ish bilan bandligi sababli farzand tarbiyasida buvi va buvalarning ishtiroki kamayib borayotgani avlodlar o'rtasidagi qadriyatlar uzviyligiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, urbanizatsiya oila hayotiga bir qator ijobiy imkoniyatlarni ham olib kiradi. Shaharlarda ta'lim, tibbiyot, madaniyat va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengligi oilalarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Xususan, ayollarning ta'lim olish darajasi va iqtisodiy faolligi ortib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei mustahkamlanmoqda. Bu esa oilada qarorlar qabul qilish, farzand tarbiyasi va oilaviy mas'uliyatni o'zaro hamkorlik asosida amalga oshirishga zamin yaratmoqda.

Mehnat migratsiyasi bugungi kunda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Ish o'rinlari, yuqori daromad yoki munosib turmush sharoitlarini izlash maqsadida oila a'zolarining boshqa hudud yoki davlatlarga vaqtincha ko'chib ishlashi zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan hodisaga aylandi. Ushbu jarayon oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan birga, uning ichki munosabatlari, tarbiyaviy muhiti va qadriyatlar tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mehnat migratsiyasi natijasida oila a'zolarining uzoq muddat bir-biridan ajralib yashashi oiladagi emotsional yaqinlikning susayishiga olib kelishi mumkin. Ota yoki onaning uzoq vaqt davomida oiladan tashqarida bo'lishi farzandlar bilan kundalik muloqotning kamayishiga, tarbiyaviy nazoratning sustlashishiga hamda ota-onalik vazifalarining to'liq bajarilmasligiga sabab bo'ladi. Ayrim holatlarda esa farzandlarning buvi-buva yoki boshqa qarindoshlar tarbiyasida voyaga yetishi oiladagi avlodlararo munosabatlarning mazmunini o'zgartirib, tarbiyaviy yondashuvlarda tafovutlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa bolalarning ruhiy holati, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuviga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, uzoq muddatli masofa turmush o'rtoqlar o'rtasidagi ishonch, o'zaro qo'llab-quvvatlash va emotsional yaqinlikni saqlab qolishni murakkablashtirishi mumkin. Oilaviy muloqotning kamayishi ayrim hollarda tushunmovchiliklar, nizolar va psixologik uzoqlashuvni keltirib chiqaradi. Shu sababli mehnat migratsiyasi sharoitida oilaviy munosabatlarni saqlashda muntazam muloqot, o'zaro ishonch va mas'uliyat muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari ham mavjud. Xorijda yoki boshqa hududlarda mehnat qilish orqali olingan daromad oilaning moddiy farovonligini oshirish, farzandlarning sifatli ta'lim olishi, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va sog'liqni saqlash xizmatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ko'plab oilalarda migratsiya natijasida iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi turmush sifatining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, migrantlarning boshqa madaniyatlar bilan tanishuvi, yangi bilim va tajribalarni o'zlashtirishi oilaning dunyoqarashi hamda ijtimoiy faolligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mening qarashlarim shudan iboratki, mehnat migratsiyasining oilaga ko'rsatayotgan ta'sirini faqat salbiy yoki faqat ijobiy jihatdan baholash to'g'ri emas. Uning natijalari ko'p jihatdan oilaning ichki psixologik muhiti, oila a'zolari o'rtasidagi ishonch va muloqot darajasi, farzandlar tarbiyasining qanday tashkil etilgani hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanilishiga bog'liq. Shu bois migratsiya sharoitida oilaviy qadriyatlarni saqlash, muntazam muloqotni yo'lga qo'yish, ota-onalarning farzandlar

tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish hamda psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish oilaning barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu bo'ys Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi oilaviy hayotning barcha jabhalariga kirib bordi. Masofaviy muloqot imkoniyatlari kengaydi, ta'lim va kasbiy rivojlanish uchun yangi sharoitlar yaratildi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq foydalanish oilada jonli muloqotning kamayishi, emotsional uzoqlashuv, oilaviy nizolar va psixologik begonalashuv xavfini oshirmoqda. Ayniqsa, bolalar va o'smirlarning internet muhitida o'tkazayotgan vaqtining ko'payishi ota-onalar bilan muloqot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa Oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi tabiiy ijtimoiy jarayon bo'lib, uni faqat salbiy yoki faqat ijobiy hodisa sifatida baholab bo'lmaydi. Asosiy masala o'zgarishlarning yo'nalishini to'g'ri boshqarishdan iborat. Milliy an'analar va zamonaviy taraqqiyot o'rtasida muvozanatni saqlash oilaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalari, mahalla institutlari, maktablar hamda ommaviy axborot vositalarining hamkorligi orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalik kompetensiyalarini rivojlantirish va oilaviy psixologik madaniyatni oshirish zarur. Bu holtda esa ommaviy madaniyatning ta'sirini kuchayishi jumladan. Kino, reklama, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan ommaviy madaniyat yoshlarning oilaga bo'lgan qarashlarini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Ba'zan xorijiy madaniy namunalar milliy qadriyatlar bilan mos kelmasligi sababli oila institutining ayrim an'anaviy funksiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda milliy madaniy merosni targ'ib qilish oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining tabiiy va uzluksiz ijtimoiy jarayoni hisoblanadi. Jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy, demografik va madaniy o'zgarishlar oilaning tuzilishi, funksiyalari hamda oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, globallashuv, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim tizimidagi islohotlar va ommaviy madaniyatning keng tarqalishi oilaviy qadriyatlarning mazmuni va shaklini yangicha ko'rinishda namoyon etmoqda. Biroq ushbu o'zgarishlar oilaviy qadriyatlarning yo'qolishini emas, balki ularning zamonaviy hayot sharoitlariga moslashib borayotganini anglatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur omillar bir tomondan oilalarning iqtisodiy imkoniyatlari, ta'lim darajasi, axborotdan foydalanish salohiyati va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan oilada o'zaro muloqotning kamayishi, avlodlararo qadriyatlar tafovutining kuchayishi, tarbiyaviy muammolar hamda emotsional yaqinlikning susayishi kabi holatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish masalasiga kompleks yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, oilaviy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish faqat oilaning o'ziga emas, balki davlat, ta'lim muassasalari, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining hamkorligiga ham bog'liqdir. Oilaga oid ma'rifiy dasturlarni kengaytirish, yoshlar o'rtasida oilaviy hayotga tayyorgarlik bo'yicha trening va seminarlarni tashkil etish, oilaviy psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi loyihalarni qo'llab-quvvatlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy qadriyatlar jamiyat barqarorligi va ma'naviy taraqqiyotining muhim omili bo'lib qolaveradi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta'sirida yuz berayotgan o'zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish va salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish oilaning mustahkamligi hamda sog'lom avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent, 2024.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Musurmonova O. *Oila ma'naviyati*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Nishonova Z.T. *Oila psixologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2020.
6. G'oziev E.G'. *Psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
7. Karimova V.M. *Ijtimoiy psixologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Bronfenbrenner U. *The Ecology of Human Development*. Cambridge: Harvard University Press, 1979.
9. Inglehart R. *Modernization and Postmodernization*. Princeton University Press, 1997.
10. Giddens A. *The Transformation of Intimacy*. Stanford University Press, 1992.
11. Beck U., Beck-Gernsheim E. *Individualization*. Sage Publications, 2002.
12. Walsh F. *Strengthening Family Resilience*. Guilford Press, 2016.
13. Carter B., McGoldrick M. *The Expanded Family Life Cycle*. Pearson, 2016.
14. UNICEF. *The State of the World's Children*. New York, 2024.
15. UNESCO. *Global Education Monitoring Report*. Paris, 2024.